



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

SHE'RIYATDA MUSIQA SAN'ATI POETIKASI: BADIY OBRAZ VA RITMIK UYG'UNLIK TAHLILI

Sultonqulova Shaxnoza Bobonazarovna
Toshkent tibbiyot universiteti Termiz filiali, o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada she'riyatda musiqa san'ati poetikasi, badiiy obraz va ritmik uyg'unlik masalalari o'rganilgan. Nay, dutor, do'mbira singari musiqiy asboblarning poetik obraz sifatida qator she'rlar orqali tahlil qilingan. Lirik asarlarda musiqiy asboblarning obrazida inson va uning umri, ruhiy kechinmalari, milliy o'zlik, urf-odat va qadriyatlar kabi falsafiy tushunchalar ifodasi ilmiy-nazariy yoritilgan.

Kalit so'zlar: san'at, musiqa, she'riyat, obraz, ramz, nay, dutor, do'mbira, milliylik, pafos.

ПОЭТИКА МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА В ПОЭЗИИ: АНАЛИЗ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА И РИТМИЧЕСКОЙ ГАРМОНИИ

Султонкулова Шахноза Бобоназаровна
Термезский филиал Ташкентского медицинского университета, преподаватель

Аннотация

В данной статье исследуются вопросы поэтики музыкального искусства в поэзии, художественного образа и ритмической гармонии. Музыкальные инструменты, такие как най, дутар и домбра, анализируются как поэтические образы на примере ряда стихотворений. В лирических произведениях через образы музыкальных инструментов научно-теоретически раскрываются философские понятия, связанные с человеком и его жизнью, духовными переживаниями, национальной идентичностью, обычаями и ценностями.

Ключевые слова: искусство, музыка, поэзия, образ, символ, най, дутар, домбра, национальность, пафос.

THE POETICS OF MUSICAL ART IN POETRY: ANALYSIS OF ARTISTIC IMAGE AND RHYTHMIC HARMONY

Sultonqulova Shaxnoza Bobonazarovna
Termez Branch of Tashkent Medical University, Lecturer

Abstract

This article examines the poetics of musical art in poetry, as well as issues of artistic imagery and rhythmic harmony. Musical instruments such as the nay, dutar, and dombra are analyzed as poetic symbols through a number of poems. In lyrical works, the images of musical instruments are used to express philosophical concepts related to human life, spiritual experiences, national identity, traditions, and values, which are interpreted from a scientific and theoretical perspective.

Keywords: art, music, poetry, image, symbol, nay, dutar, dombra, nationality, pathos.

She'riyat va musiqa san'ati qadimdan bir-biriga yaqin va mutanosib san'at turlari hisoblanadi. She'riyatda musiqa san'ati badiiyatining mohiyatini she'riy asardagi musiqiy ritm, ohangdorlik va unga oid vositalarning badiiy obrazlar orqali ifodalanishi tashkil qiladi. Shoir qalbidagi tuyg'ular so'z orqali ifoda topsa, bastakorning ichki kechinmalari ohang va navoda jaranglaydi. Bu ikki san'at turi birlashgan lahzada asarning ta'sir kuchi ortadi, uning badiiy qimmatini yuksaladi. Ijodkor shaxsi qanchalik teran tafakkurli, didi nozik va ruhiyati boy bo'lsa, yaratilgan she'r ham, kuy ham shunchalik qalblarga yaqin bo'ladi. Buyuk san'atning qudrati shundaki, u ziyoli va mushohadali insonning nafis didini ham, oddiy tinglovchi va kitobxon qalbini ham birdek rom eta oladi. She'riyatda so'z ohangi, ritm va vazn qanday ahamiyat kasb etsa, musiqada ham kuy, sur'at va ohang shu qadar muhimdir. Shu bois she'r bilan musiqa uyg'unlashganda ma'no va hissiyot yanada chuqurroq aks etadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, she'riyat barcha san'at turlari orasida inson his-tuyg'ulariga ta'sir etishi, badiiy-estetik jihatdan borliq hodisalari, tabiat va turli narsalarni o'zida aks ettirishi bilan qimmatlidir. Badiiy adabiyotning tasvir imkoniyatlari rassomchilik, musiqa, teatr hamda kino singari bir qator san'at turlari bilan sintezlashuvi uning estetik ta'sir doirasini yanada kengaytiradi. Adabiyot so'z vositasida ish ko'radi. Lirik asarlarda so'z orqali inson ruhiyati, voqelik va badiiy tafakkur ifodalansa,

boshqa san'at turlari ushbu tasvirni rang, ohang, harakat va vizual obrazlar orqali boyitadi. She'riy asarlarda san'at vositalari obraz sifatida tasvirlanishi, ko'p qatlamli estetik funksiyasini amalga oshirishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Buyuk yunon olimi Aristotel ijodkorlar san'at yaratishda "...ko'p narsalarning tasvirini... yo ritm, yo so'z yohud garmoniya yordamida yoki shularning hammasi uyg'unligida tasvirladilar" [1; 20-b.] deb yozadi. Taqlid nazariyasini ilgari surgan olimning bu fikrlari san'at turlari orasida adabiyot, xususan, she'riyat va musiqaga daxldordir. So'z san'ati — adabiyot va musiqa o'rtasidagi uzviy bog'liqlik uzoq davrlardan buyon nazariy jihatdan asoslanib kelinmoqda. She'r ruhiy-ijodiy faoliyat bo'lishi bilan birga, ritm va ohangdorlik tufayli musiqiy asarga ham aylanadi. Lirik ifodasida musiqiy obrazlar tasviri lirik qahramon kechinmalarini teran aks ettirib, o'quvchi ongida falsafiy mushohadalar uyg'otadi hamda uning ruhiyatiga estetik zavq bag'ishlaydi.

Fransuz haykaltaroshi O. Roden badiiy ijod uchun ham fikr, ham his-tuyg'ularning ahamiyatini alohida ta'kidlab: "San'at dunyoni idrok etishga intiladigan va bu dunyoni tushunarli qilishga intiladigan tafakkur asaridir... U san'atkor qalbining hamma narsada aks etishidir", — deydi. She'riyatda musiqiy asbob nomlarining qo'llanilishi xalq og'zaki ijodining yirik janri bo'lgan dostonlarda ham uchraydi. Baxshilar do'mbira jo'rligida doston aytib, o'z so'zi haqida doston boshlanmasida kuylaganlar. Musiqa avj nuqtasiga yetgan pallada torlarning uzilishi, tuyg'ularning me'yordan oshishi, muhabbat va ohangning cheksiz darajada kuchayishi inson ruhiy dunyosiga kuchli hissiy ta'sir o'tkazadi.

Umuman, musiqa va so'z san'ati haqida buyuk mutafakkir shoirlar — Alisher Navoiy va Z.M. Bobur kabi ijodkorlarning asarlari mavjud bo'lib, ularda musiqa inson hayotiga ta'sir etuvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchining yozishicha: "XV asrga kelib cholg'u asboblari, xususan, torli asboblarda musiqa chalish keng tarqaladi. Bu musiqiy asboblarning poetik tasviri haqida XV asrda yashagan o'zbek shoiri Ahmadning 'Sozlar munozarasi' deb nomlangan original asarida ham batafsil ma'lumot berilgan" [3; 144-b.].

Mazkur tadqiqotning obyekti musiqa asbobi bilan bog'liq holda yaratilgan badiiy obrazli lirik she'rlar bo'lib, unda musiqiy timsollarning poetik vazifasi, obraz yaratishdagi o'rni, shuningdek, lirik qahramon kechinmalarini ifoda etishi hamda ularning badiiy xususiyatlari tahlil etiladi. Umuman, o'zbek she'riyatida musiqa san'atidagi nay, dutor va do'mbira singari obrazlarning yetakchiligi, ularning ko'chma ma'nosi hamda ramziy timsol sifatidagi ahamiyati haqida muhim nazariy xulosalar chiqariladi.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning "Nayning qismati" she'rida ijodkor nay ramziy timsolida aks etadi. Mazkur she'r shoirning falsafiy-estetik qarashlarini ifodalaydi. She'rda nay oddiy musiqa cholg'u asbobi emas, balki inson taqdiri, ijodkor umr yo'li va san'atkor qismatining ramziy obrazi sifatida tasvirlangan. Shoir nay timsoli orqali iste'dodning porlashi, shuhrat topishi, keyinchalik asta-sekin so'nishi, ammo iste'dod va halol mehnat tufayli xalq qalbida qolishini badiiy ifodalaydi. She'r nayning "navo bo'lib kirib dil-u o'ylarga" degan ta'rifi bilan boshlanadi:

Hamma unga shaydo bo'lib,
Olib ketdi to'ylarga.
To'ylarda u qildi nola,
El undan zavq simirdi.
Vaqt o'tib nay —
Kamtar bola
O'zni qo'ydi, semirdi [3; 37-b.].

She'rda "kamtar bola" — nay "kuylarga oshno" bo'lib "semiradi", keyinchalik "surnay" nomini oladi, "ovozi o'zgaradi", "avvalgi xonishlari" qolmaydi. Bu o'rinda shoir naydagi ana shu o'zgarishlarni inson umri bilan muqoyasa qiladi. Nay yoshlikdan qarilikka tomon o'ta boshlaydi. Uning nafis, mayin ohangi endi surnayning baland va jo'shqin sadosiga almashadi. Hayot tashvishlari sabab inson yashashi davomida yosh va sog'lik kabi turli jihatlaridan o'zgarib boradi. Shu jihatdan she'rda inson umrining bosqichlari — yoshlikdan qarilikkacha bo'lgan davr, uning turli ruhiy va tashqi holati nay obrazi orqali umumlashtiriladi.

Nay qarib qoladi: "g'iyqillab, goh bo'g'ilib, kuylayberdi sobiq nay. Oxiri u qarib qoldi, bo'g'ildiyu tomog'i, ham ovozi, ham ko'zdan qoldi, bitdi tamom qulog'i". Shunday bo'lsa-da, nay qari deb unutilmaydi, aksincha, hurmatga sazovor bo'ladi:

Lek baribir,
Yoshlikdagi

Iste'dodi uchun ham,
Halol xizmat,
Pok yuragi,
Pok ijodi uchun ham —
Saqlar uni el nazarda
Hurmat qilib qo'yadi,
Kar nay katta sayllarda
G'at-g'at qilib qo'yadi [3; 37-b.].

Dastavval “nay”, keyin “surnay”, she'r so'ngida esa “karnay”ga aylangan nay badiiy obraz sifatida umrini san'atga bag'ishlagan inson siymosini gavdalandiradi. Nay obrazi timsolida ijodkor qadri tarannum etiladi. Nay oddiy cholg'udan inson qismatining teran timsoliga aylangan. Shu jihatdan ushbu she'rda nay musiqiy obrazi vositasida inson va uning hayotiy yo'li haqida chuqur falsafiy mazmun ifodalanadi.

O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning “Dutor haqida rivoyat” she'rda dator musiqiy asbobi san'atga xos poetik ramz sifatida aks ettiriladi. She'rning ilk misralaridayoq inson hayotida musiqiy ohangning kuchli ta'siri “o'rtadi” hamda “telbakor tuyg'u o'rnadi” kabi ifodalar vositasida yuzaga chiqadi:

Majnun kuy keltirdi, ruhlarga fikrat,
Onglarga — shijoat, so'zlarga jur'at [4; 470-b.].

Bu misralardagi ritmik uyg'unlik qofiyadosh so'zlardagi musiqiylik bilan qo'shiladi. She'rda dutordan chiquvchi kuy inson ruhiy dunyosini, his-tuyg'ularini uyg'otuvchi detal sifatida namoyon bo'ladi. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etuvchi san'at turi o'laroq qadim zamonlardan buyon mavjud. Kuy qalblarda yangi olam yaratadi, ruhga fikr, ongga shijoat, so'zlarga jur'at baxsh etadi. Uning “kuylayverishi”, “dardlari chaman”, “har qalbdagi o'zga bir olam yaratishi” kabi tasvirlarda metafora orqali kuyning estetik ta'siri oshiriladi. She'rda san'at turlari o'rtasidagi bog'liqlik dutordan taralgan kuydagi ajib ohangdorlik tasviri orqali yuzaga chiqqan. Shoirning badiiy mahorati parallelizmlar vositasida dutordan taralgan kuy ohangi orqali inson kechinmalarini yuzaga chiqaradi:

Har dil o'zga rangda gulga ko'mildi,
Har kim har toifa mungga ko'mildi.

She'rdagi musiqa bilan bog'liq kuy, mung, dator, tinglamoq kabi ifodalar lirik qahramon kechinmalarining chuqurligini, ayniqsa, muhabbat tuyg'usining avj nuqtasini yuqori darajada aks ettiradi. She'r yakunida kuyning hissiy ta'siri “dutorning devorga osilishi” tasvirida ramziy aks etadi. She'riyatda dator xalq ruhiyati va milliy qadriyat timsoligina bo'lib qolmay, inson qalbidagi muhabbat, hijron kabi nozik tuyg'ularni ham aks ettiradi.

Surxondaryolik taniqli shoir Shodmonqul Salom ijodida baxshiyona ruh ustuvorligi seziladi. Uning tabiiy quyma satrlari o'z-o'zidan xalq ohanglariga mos o'qiladi. Ayniqsa, “Do'mbira” she'rda milliylik ruhi va xalq qadriyatlari tarannum etiladi:

Do'mbira, momolar sog'inch,
G'amiga esh bo'lgan tilimsan.
Do'mbira, Oybachin sevinchi,
Alpomish qaytguchi yo'limsan [5; 148-b.].

She'rda lirik qahramon do'mbirani oddiy cholg'u asbobi sifatida ko'rmaydi. Do'mbira ramziy ma'noda millatning ruhi, butun tarixi va muqaddas maskanini ifoda etadi. Shu sababli shoir “Do'mbira, Vatanga o'xshasan” deydi. Shoir she'r ritmini do'mbira ohangiga moslab yaratadi. She'rni baxshilar monand aytish ehtiyoji yuzaga keladi. She'rdagi metafora, sifatlash, mubolag'a va alliteratsiya kabi badiiy vositalar orqali mazmun va ohangdorlik ta'minlanadi:

Do'mbira, qo'sh toring qo'shilsa,
Ko'ngilning kamlari to'lgaydir.
Olamga qo'shiqday sochilgan
Turkiylar yig'ilib kelgaydir.

She'rda do'mbira oddiy detal emas, millatning ma'naviy yukini o'zida jamlagan badiiy timsolga aylanadi. She'rning butun bandida do'mbiraning anafora tarzida keltirilishi musiqiylikni oshirish bilan birga, she'rdagi milliy ruh pafosini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy obraz nuqtayi nazaridan musiqiy asboblari she'riyatda ko'pincha ramziy ma'no kasb etadi. Nay, dator, rubob, do'mbira kabi cholg'ular nafaqat detal sifatida, balki muayyan ruhiy holatning timsoli sifatida qo'llanadi. Yuqorida tahlil etilgan she'rlarda inson umrining mazmuni —

nay, inson tuygʻulari, iztirob va hijron — dutor, milliylik, tarix va millat maʼnaviyati esa doʻmbira kabi musiqiy asboblarda obrazida talqin qilinadi. Bu esa semiotik jihatdan musiqiy obrazlarning koʻp qatlamli maʼno tashishini koʻrsatadi. Musiqa inson qalbidagi eng nozik kechinmalarni ifodalaydi, ritmik uygʻunlik esa sheʼrning ichki harakati va emotsional taʼsirini taʼminlaydi. Natijada sanʼat turlari oʻrtasidagi sintezlashuv yuzaga kelib, badiiy obraz va musiqiy ohang oʻquvchi ongida kuchli hissiy-estetik taassurot uygʻotadigan mukammal badiiyat namunasi yaratilishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. — 352 b.
2. Zoirov Z. Shoirarning musiqa rivojida amaliy hissasi // Sharq yulduzi jurnali. — 2023. — № 4. — B. 144–146.
3. Vohidov E. Mening yulduzim: sheʼrlar / tahrir hayʼati: A. Oripov, J. Yoʻldoshev, Y. Saidjonov va boshq. — Toshkent: Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 2000. — 40 b.
4. Usmon Azim. Tanlangan asarlar: nazm, nasr, dramaturgiya. — Toshkent: Sharq, 2021. — 704 b.
5. Shodmonqul Salom. Sheʼr sayyorasi. — Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 2020. — 260 b.